8-BO‘LIM.
YOSH TADQIQOTCHI MINBARI

TARBIYADA AN’ANAVIY VA MA’NAVIY QADRIYATLAR UYG‘UNLIGI

Abdujabborova Musallam Anvarovna
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti (O‘zDSMI) “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Annotatsiya. Maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida yosh avlod tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘rni yoritilgan. Shuningdek, oilaning farzand ma’naviy-axloqiy kamolotidagi ahamiyati, ota-onaning shaxsiy namunasi hamda milliy qadriyat va urf-odatlarning yoshlar tarbiyasiga ta’siri tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi, ma’naviy-axloqiy tarbiya, oila, ota-ona, milliy urf-odatlar, farzand tarbiyasi.

Аннотация. В статье освещается роль национальных и общечеловеческих ценностей в воспитании молодого поколения в условиях Нового Узбекистана. Также анализируются значение семьи в духовно-нравственном развитии детей, личный пример родителей, а также влияние национальных ценностей и традиций на воспитание молодежи.

Ключевые слова: национальные ценности, общечеловеческие ценности, воспитание молодежи, духовно-нравственное воспитание, семья, родители, национальные традиции, воспитание детей.

Abstract. The article highlights the role of national and universal human values in educating the younger generation in the context of New Uzbekistan. It also analyzes the importance of the family in the spiritual and moral development of children, the personal example of parents, and the influence of national values and traditions on youth education.

Keywords: national values, universal human values, youth education, spiritual and moral education, family, parents, national traditions, child upbringing.

Bugungi o‘zgarayotgan Yangi O‘zbekistonda umuminsoniy qad-

riyatlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanib, uning asosiy maqsadi - o‘zlikni anglash, milliy qadriyatlarni tiklash, ko‘p millatli xalqimizni birlashtirish, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan holda ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalashdan iborat. Ma’lumki, yurtimizda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yuksaltirishga keng sharoit yaratilmoqda, ilmiy tadqiqotlar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, xalqaro festivallar o‘tkazilmoqda. Bularning barchasi yurtimizda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga katta e’tibor berilayotgani, hurmat ko‘rsatilayotganidan dalolat beradi.

Bugungi kunda O‘zbekiston istiqloli va istiqbolini, buyuk kelajagini, umumjahon sivilizatsiyasiga qo‘shayotgan hissasini butun dunyo qadrlamoqda va tan olmoqda. Umuminsoniy qadriyatlar nafaqat bizning mamlakatimiz, balki butun jahonda keng amal qilmoqda. Davlat ta’lim standartlarida qadriyatlar haqidagi bilimlarga alohida ahamiyat qaratilgan. Mamlakatimizda yangicha uyg‘onish va rivojlanish davri kechayotgan bugungi kunda oilada “ota-ona”, ta’lim muassasasida “pedagog” degan ulug‘ va mas’uliyatli kasb egasi oldida juda katta vazifalar turibdi. Bugun har bir yoshning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda badiiy adabiyotga ishtiyoq uyg‘otish, ularni she’riyatga qiziqtirish, cholg‘u asboblaridan hech bo‘lmaganda bittasini chalishni o‘rganish, qo‘shiq aytish, raqs tushish, rasm chizish, me’morchilik, teatr to‘g‘risida tushunchalar hosil qilish, tarixga qiziqtirish, oilaviy marosimlar, xalq og‘zaki ijodi, an’anaviy mehmondo‘stlik va hurmat kabi qadriyatlarni tushuntirish va ularni hayotga tatbiq etish, iqtisodiy bilimlar berish, qizlarimizni oilada tejamkorlikka, “yo‘qdan bor qilish”ga o‘rgatish, farosatli qilib tarbiyalash o‘ta muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda, shubhasiz, kattalarning shaxsiy namunasi muhim rol o‘ynaydi. Xalqimizda “Tarbiyada tanaffus bo‘lmaydi”, degan go‘zal ibora bor. Juda to‘g‘ri va haq gap. Bugun yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlarga tayanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki globallashuv jarayoni, axborot xuruji va turli yot g‘oyalar ta’siri ortib borayotgan bir paytda yosh avlodning ruhiyati, axloqi va dunyoqarashini milliy asosda shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Bola shaxsining kamol topishida muhit muhim rol o‘ynaydi. Muhit - bu insonga ta’sir etuvchi tashqi voqea-hodisalar yig‘indisi hisoblanadi. Ayniqsa, oila muhiti bola tarbiyasining asosi, negizini tashkil etadi. Oilada ota-onaning bola bilan faol muloqot olib borishi, ularni tinglash va fikrlarini inobatga olish - farzandlarda ishonch va mas’uliyat tuyg‘usini shakllantiradi. Shu o‘rinda farzand tarbiyasida zamonaviy ota-onaning vazifalari nimalardan iborat, degan tabiiy savol tug‘iladi. Tan olish kerak, bugungi ota-onalarning ko‘pchiligi doimiy ish bilan band. Ular davlat korxonalari xodimi, xususiy tadbirkor, bozorda savdo xodimi, xo-

rijda ishchi, xizmatchi va boshqa h.k.

Bir pedagog sifatida aytadigan bo‘lsam, farzandning shaxsiy salohiyatini rivojlantirish - bu asosiy masala sanaladi. Har bir bola o‘ziga xos qobiliyat va iste’dod egasidir. Ota-onalar bolaning qiziqishlarini erta aniqlab, shu yo‘nalishda qo‘llab-quvvatlashi kerak. Bolaning ijodiy, intellektual, jismoniy imkoniyatlarini rivojlantirish uchun tegishli muhit yaratish lozim. Ota-ona farzandi bilan teppa-teng muloqot qilishga intilishi kerak. Bolani tinglash, uning fikriga hurmat bilan yondashish, g‘oya va tashabbuslarini so‘z va amaliy jihatdan rag‘batlantirishi lozim. Ayniqsa, oilada ota-ona shaxsiy namuna bo‘la olishi kerak. Chunki ota-ona har qanday farzand uchun hayotdagi eng birinchi o‘rnak va namuna hisoblanadi. Oilada kattalarning har bir harakati, gap-so‘zi, odob-axloqi farzandga bevosita ta’sir qiladi. Agar ota-ona kitob, gazeta, jurnal o‘qisa, bola bilan shaxmat, shashka o‘ynashni odat qilsa, birgalikda boshqotirma yechsa, halol mehnat qilsa, birovga yordam ko‘rsatsa - bola ham o‘z hayotida ana shunday yo‘lni tanlaydi, odat tusiga aylantiradi, ko‘nikma hosil qiladi.

Zamonaviy ota-ona - bu faqat bolaga boshpana va ovqat beruvchi emas, balki uning hayot yo‘lidagi birinchi ustoz, maslahatchi va rahnamodir. Bugungi tez o‘zgarayotgan, axborot va ta’sirlar oqimi katta bo‘lgan zamonda farzand tarbiyasiga mas’uliyat bilan yondashish nafaqat ota-onaning shaxsiy burchi, balki jamiyat oldidagi muhim vazifasi hamdir. Shu sababli, har bir ota-ona muntazam o‘rganuvchi, o‘zini takomillashtirib boruvchi, zamon bilan hamnafas bo‘lib, farzandiga zamonaviy bilim olish va milliy tarbiyani singdirishda ko‘maklashishi lozim.

Shu o‘rinda farzand tarbiyasida milliy qadriyatlar, urf-odatlarning o‘rni qanchalik zarur va ular asosan nimalardan iborat, degan savol tug‘iladi. Milliy qadriyatlar - xalqning hayot tarzi, dunyoqarashi, ma’naviyati, axloqiy me’yorlari va madaniyatini ifoda etuvchi tarixiy-madaniy hodisalar majmuasidir. Ular, asosan, kattaga hurmat, kichikka izzat, ota-onaga sadoqat, mehrli bo‘lish, mehnatsevarlik, oilaviy an’analarga sodiqlik, mehmonga ehtirom, bag‘rikenglik, insonparvarlik kabi fazilatlardan iborat bo‘lib, avloddan avlodga o‘tib keladi.

Urf-odatlar - bu xalqning uzoq yillar davomida shakllangan turmush tarzi va madaniyatini ifoda etadigan amaliy an’analardir. Milliy bayram va marosimlar, xususan, Navro‘z, Mustaqillik kuni, Qurbon va Ramazon hayiti kabi milliy bayramlar vositasida yoshlar oilaviy birlik, yaxshi axloq va insoniylik qadriyatlarini o‘rganadilar. Milliy bayramlar, tarixiy xotiralar yoshlarda o‘z xalqining o‘tmishiga nisbatan faxr tuyg‘usini uyg‘otadi, vatanparvarlik tuyg‘usini oshiradi. Ayniqsa, xalqimizning

eng qadimgi udumi - “hashar” bolalarni mehnatsevarlik va birdamlikka undaydi, yoshlar o‘rtasida bir-biriga mehr, hurmat, sodiqlik fazilatlarini kuchaytiradi.

Urf-odatlar orqali yoshlar ma’naviy qadriyatlarni o‘zlashtiradi, o‘z hayotini yaxshilash va odamlarga yordam berishni o‘rganadilar. Bunday fazilatlar bugungi zamon yoshlarida ijtimoiy mas’uliyat hissini rivojlantirishda o‘ta muhim omil sanaladi. Xulosa qilib aytganda, tarbiyada an’anaviy va ma’naviy qadriyatlarning uyg‘unligi bolalar va o‘smirlar uchun ruhiy barqarorlik, axloqiy kamolot va jamiyat uchun foydali faoliyatga olib keladi. Bu ikki qadriyat turi inson ichki va tashqi dunyosi bilan uyg‘unlashsa, yosh avlodning xolis, o‘ziga va boshqalarga ishonchi baland, ma’naviy yuksak, jamiyatga foyda keltiradigan shaxslar bo‘lib shakllanishida ustuvor manbalardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq [nashrga tayyorlovchi Xoliqov L.]. — Toshkent: O‘qituvchi, 1992. — 160 b.

2. Musurmonova O. O‘quvchilarning ma’naviy madaniyatini shakllantirish. — T.: Fan, 1993. — 28 b.

3. Jo‘rayeva S.N. Talaba shaxsiga kasbiy shakllanish ta’sirining psixologik jihatlari: Avtoreferat. Dis... ped. fan. nom. — T., 2010 y.

4. Begmatov A. Ma’naviyat falsafasi yoxud Islom Karimov asarlarida yangi falsafiy tizimning yaratilishi. — Toshkent: Sharq, 2000 y. — 64–65 b.

5. Rumiy J. Ma’naviy masnaviy. Muhammad tarjimasi. — Tehron, 2001 yil. — 7-b. Forscha-o‘zbekcha lug‘at.